

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva</b>	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
<b>I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova</b>	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari .....	145
<b>Z.X.Mamatova</b>	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
<b>A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva</b>	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	156
<b>B.B.Djalalov</b>	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
<b>B.S.Siddiqov</b>	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
<b>D.A.Yo'ldosheva</b>	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida .....	170
<b>I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
<b>J.U.Tojiboyev</b>	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi .....	178
<b>M.O.Karimova, X.X.Tojiyev</b>	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi .....	183
<b>H.A.Абдуллаева</b>	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
<b>N.S.Temirov</b>	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari .....	194
<b>O.F.Hamrayeva</b>	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. ....	199
<b>Sh.O.Aripov</b>	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari .....	204
<b>Sh.N.Mehmonaliyev</b>	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri. ....	208
<b>U.Q.Maqsudov</b>	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
<b>O.N.Fozilova</b>	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya) .....	217
<b>M.E.Xallokova</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
<b>I.S.Soliyev</b>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari .....	227
<b>F.O.O'rinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati .....	232
<b>R.Y.O'rinov</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 371.912+37.015.3(575.1)

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA ZARURIYAT SIFATIDA****РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА КАК НЕОБХОДИМОСТЬ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ****THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS ON THE BASIS OF AN ACMEOLOGICAL APPROACH AS A NECESSITY IN MODERN PEDAGOGY**

**Yo'ldosheva Dilfuzaxon Alisher qizi**  
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda. So'nggi yillardagi zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi keng doirada o'rganilib, uning ilmiy-nazariy asoslari shakllantirildi.

Bugungi kunda davlat va jamiyat bo'lajak pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo'yimoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda akmeologik yondashuv talablari asosida tashkil etiladi. Bu o'z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat'iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo'ladigan o'quv dasturlari akmeologik yondashuv prinsipi asosida yaratilishi lozim.

Bo'lajak pedagoglar kreativ kompetentligining yetarli emasligi muammosini hal qilish uchun fanlarni o'qitishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, noan'anaviy shakllar, usullar va vositalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish kerak. Shundagina talabalarda yuqori kreativ faollikka erishish va ijodkorlik sohasida muvaffaqiyatli o'qishni ta'minlash mumkin. Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida o'qitishning turli jihatlari va ularning malakasini oshirishni hisobga olgan holda mutaxassislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

**Аннотация**

Проблема развития творческой компетентности будущих педагогов путем модернизации и содержательного совершенствования системы непрерывного образования и сегодня составляет основу современной педагогики. В современных педагогико-психологических исследованиях последних лет широко изучена проблема развития креативной компетентности будущих педагогов, сформулированы ее научно-теоретические основы.

Сегодня государство и общество ставят перед будущими педагогами задачу непрерывного профессионального развития. Такой процесс развития организуется прежде всего на основе требований акмеологического подхода. Это, в свою очередь, требует специалистов творческих, самостоятельных мыслителей, способных решать жизненные ситуации на основе жесткого подхода, глубоко владеющих профессиональными компетенциями. Учебные программы, которые станут основой для организации такого педагогического процесса, должны создаваться по принципу акмеологического подхода.

Для решения проблемы недостаточной креативной компетентности будущих педагогов необходимо применение активных образовательных технологий в преподавании предметов, интересная и содержательная организация обучения с использованием нетрадиционных форм, методов и средств. Только тогда можно добиться высокой творческой активности учащихся и обеспечить успешное обучение в сфере творчества. В данной статье освещаются различные аспекты обучения на основе акмеологического подхода и вопросы развития творческих способностей специалистов с учетом повышения их квалификации.

**Abstract**

The problem of developing the creative competence of future educators through the modernization and content improvement of the system of continuing education still forms the basis of modern pedagogy today. In modern pedagogical and psychological research of recent years, the problem of developing the creative competence of Future Educators has been studied in a wide range, and its scientific and theoretical foundations have been formed.

Today, the state and society set the task of continuous professional development for future educators. Such a development process is primarily organized on the basis of the requirements of an acmeological approach. This in turn presupposes specialists who are creative, independent thinkers, able to solve life situations on the basis of a strict approach, who deeply occupy professional competencies. Educational programs that will be based on the organization of such a pedagogical process should be created on the principle of an acmeological approach.

## PEDAGOGIKA

*To solve the problem of insufficient creative competence of future educators, it is necessary to use active educational technologies in the teaching of subjects, to organize classes with interest and meaning, using unconventional forms, methods and tools. Only then can students achieve high creative activity and ensure successful studies in the field of creativity. This article covers various aspects of training on the basis of an acmeological approach and the development of the creative abilities of specialists taking into account their professional development.*

**Kalit so'zlar:** akmeologiya, akmeologik yondashuv, kompetentlik, kreativlik, kreativ kompetentlik, kasbiy kompetensiya, pedagog kreativligi.

**Ключевые слова:** акмеология, акмеологический подход, компетентность, креативность, креативная компетентность, профессиональная компетентность, креативность педагога.

**Key words:** acmeology, acmeological approach, competence, creativity, creative competence, professional competence, pedagogical creativity.

**KIRISH**

Dunyodagi ko'p mamlakatlar (AQSh, Angliya, Polsha, Xitoy va boshqalar) olimlari ta'lim faoliyati sharoitida shaxsning kreativ kompetentligini rivojlantirish yo'llarini o'rganmoqdalar.

Oliy ta'lim dasturlari doirasida fundamental bilimlar berishdan tashqari talabalarning kreativ, innovatsion salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratadigan dasturlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday dasturlar Renselayer politexnika universiteti, Stenford universiteti (AQSh), Gonkong universiteti (Xitoy), Varshava universiteti (Polsha) kabi xorijiy universitetlarda to'liq amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda davlat va jamiyat bo'lajak pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo'yimoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda akmeologik yondashuv konsepsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o'z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat'iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo'ladigan o'quv dasturlari akmeologik yondashuv prinsipi asosida yaratilishi lozim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlangan kreativlikni rivojlantirish muammosi haligacha joylardagi o'qituvchilar uchun muhim vazifaga aylangani yo'q[2, 201-b]. Yu.Pluser va R.Begetto kreativlikni rivojlantirish muammosi haqida uni o'qituvchilar va maktab psixologlari tomonidan jiddiy qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi bir qancha miflarni shakllantirish orqali zamonaviy pedagogikaga xos vaziyatni asoslashga harakat qildilar[7, 153-167-b]. Tadqiqotchi T.Lyubartning qayd etishicha, "kreativlik" tushunchasi ijod jarayonida olingan yangi natijalar bilan tajriba o'tkazishni taqozo etadi[3, 339-350-b]. Uning fikricha, "kreativlik – bu mavzu doirasida yangi natijalar yaratish qobiliyatidir. Bu natijalar allaqachon mavjud bo'lgan narsalarni takrorlamasligi jihatidan yangi bo'lishi kerak"[3, 340-b].

Akmeologik yondashuv asosida o'qitishning turli jihatlarini va ularning malakasini oshirishni hisobga olgan holda mutaxassislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ustunlik qiladi.

Akmeologiya sohasida amaliyot insonni takomillashtirish va uning professional faoliyatini optimallashtirish maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

**Akmeologiya** (yun.akme-yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, logos-ta'limot)- shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi fan. Akmeologiya haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan.

Akmeologiyaning asoschilaridan biri bo'lgan A.A.Derkach akmeologiyani mustaqil ilmiy fan deb ta'kidlaydi[1]. Akmeologiya metodologiyasi inson va uning ma'naviy dunyosi, kreativlik va o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatiga oid g'oyalar to'plamiga asoslanadi.

B.B.Ma'murov, fikriga ko'ra, akmeologik yondashuvga asoslangan oliy pedagogik ta'limning markaziga talaba shaxsi qo'yiladi. Bu jarayonda bo'lajak pedagoglar kasbiy rivojlanishning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo'ladilar. Professor-o'qituvchilar talabalar bilan dialogga asoslangan muloqot jarayonida ularda o'zlariga nisbatan ishonch hosil qilib, o'z fikrlarini dadillik bilan bayon etishlariga sharoit yaratadilar. Bu esa talabalarga o'zlashtirilayotgan kasbiy bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash va o'quv materiallarini jadal o'zlashtirish imkonini beradi.

Birinchi marta "akmeologiya" tushunchasi 1928-yilda N.A.Ribnikov tomonidan rivojlanish psixologiyasining maxsus bo'limi-yetuklik yoki balog'at psixologiyasini belgilash uchun kiritilgan. XX asrning o'rtalariga kelib, B.G.Ananyev akmeologiyani insonshunoslik fanlari tizimidagi o'rni va mavqeini belgilab berdi. XX asrning 90-yillarida A.A.Derkach va A.A.Bodalyev rahbarligida Rossiya

davlat xizmati akademiyasi huzurida birinchi marta “Kasbiy faoliyat psixologiyasi va akmeologiyasi” kafedrasini tashkil etildi. 1992-yilda ps.f.d. N.V.Kuzmina, ps.f.d. A.A.Derkach va ps.f.d. A.M.Zimichev tashabbuslari bilan Rossiyaning Sank-Peterburg shahrida “Akmeologiya fanlari akademiyasi” ilmiy jamiyati tashkil etildi. 1995-yilda ps.f.d. A.M.Zimichev tashabbusi bilan akmeologik yo‘nalishdagi birinchi oliy o‘quv yurti- Sank-Peterburg psixologiya va akmeologiya instituti tashkil etildi va faoliyat olib bormoqda. XX asrning oxirlaridan boshlab akmeologiya o‘quv predmeti sifatida jahonning turli mamlakatlari o‘quv jarayoniga tatbiq etila boshlandi.

**Pedagogik akmeologiya** – bu amaliy fan bo‘lib, uning predmetlari va o‘qituvchilarning kasbiy darajasi, o‘qituvchining kasbiy yetukligi va shaxsiyatining cho‘qqilarga chiqish shartlari va shakllari (N.V.Kuzmina). Ta‘limning akmeologiyasi, o‘z navbatida, yuqori sifatli ta‘lim tizimiga erishish va o‘quv jarayoni sub’ektlari: o‘qituvchi va talabaning rivojlanishi uchun sharoitlarni o‘rganadi.

Ilmiy jamoatchilikka ma‘lum pedagogik-psixologik nazariyalarda e‘tirof etilishicha, akmeologiyaning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, V.N.Maksimova, A.A.Bodalyev, R.G‘.Safarova, M.X.Mahmudov, N.Muslimov, B.B.Ma‘murov kabi taniqli olimlar nomi bilan bog‘liq.

Bu pedagog olimlar tadqiqotlarining dastlabki bosqichlarida akmeologiya o‘qituvchi faoliyatining kasbiy mahorati nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Keyinchalik turli sohalarda ham kasbiy yetuklikning yuqori cho‘qqisiga erishish maqsadida **akmeologik yondashuv** tatbiq etila boshlandi.

N.V.Kuzminaning fikricha, akmeologiya-insonning kasbiy yetuklik jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish qonuniyatlari, shart-sharoitlari, omillari va stimullarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi.

A.A.Derkach, A.A.Bodalyevlar esa akmeologiya ijtimoiy, gumanitar hamda texnik fanlar kesimida paydo bo‘lib, insonning yetuklik davrida o‘z kasbiy yo‘nalishida yuqori darajadagi yutuqlarga erishish qonuniyatlari hamda mexanizmlarini o‘rganuvchi fan ekanligini ta‘kidlaganlar.

V.N.Maksimova akmeologiyani o‘qitish tizimlarini rivojlantirish sharoitida ta‘lim jarayonlari subyektlarining o‘z-o‘zini takomillashtirishi to‘g‘risidagi fan sifatida ta‘riflagan.

Akmeologiya- insonning balog‘at, ya‘ni hayotining eng sermahsul davri haqida kompleks fan, tor ma‘noda esa balog‘at yoshidagi shaxsni o‘rganuvchi yosh davrlar psixologiyasining bo‘limi hisoblanadi. Akmeologiya-mohiyatan yetuk, barkamol insonlarning rivojlanishi to‘g‘risidagi fan.

Pedagog olim B.B.Ma‘murov esa akmeologiya insonning obyektiv va subyektiv omillar ta‘sirida shakllanuvchi jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy kamoloti uchun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan xususiyatlarining eng yuqori cho‘qqiga erishish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan deb ta‘riflaydi[5, 12-b].

## NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda pedagogik akmeologiyaning vazifalari sifatida quyidagilarni ta‘kidlash mumkin:

- pedagogning insonparvarlik yondashuvi asosida alohida o‘quv fanlari orqali talabalar shaxsini rivojlantirishga, kasbiy mahorat cho‘qqilariga erishishga, shuningdek bo‘lajak pedagoglarni pedagogik faoliyatning keyingi bosqichlariga tayyorlashda ularning motivlari, qadriyat yo‘nalishlari, maqsadlarini hisobga olgan holda o‘z faoliyatining usul va vositalarini tanlashiga yordam beradi;

- pedagog shaxsi va faoliyatining darajalari va bosqichlarini, bir professionallik darajasidan ikkinchisiga o‘tishning akmeologik texnologiyalarini ochib beradi;

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish va o‘shish trayektoriyasini (akmeogramma) pedagog tomonidan individual ravishda tanlagan kasbiy mahoratga erishish yo‘llari, shuningdek, pedagog shaxsiyatining kasbiy deformatsiyasini (emotsional “yonish” va charchoq va boshqalar) bartaraf etish usullarini belgilaydi[8, 83-84-b].

Ta‘lim sohasida akmeologik yondashuvni qo‘llashning asosiy **maqsadi** - pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining hozirgi darajasini yuqori, optimal darajaga ko‘tarishdan iborat. “Ideal-mukammallik” sari bo‘lgan bu yo‘l doimiy harakat jarayonida pedagog rivojlanishining real xususiyatlarini takomillashtirishning optimal modeliga tayangan holda amalga oshiriladi. Pedagog rivojlanishning reproduktiv usullari o‘rtasida tanlov qilish orqali nafaqat o‘zini anglaydi, balki u o‘zini sifat jihatidan o‘zgartiradi, psixologik to‘siqlarni yengadi, hayotiy maqsadlarini qayta ko‘rib chiqadi, akmeologik jihatdan muhim fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini izlaydi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishning o‘ziga xos trayektoriyasini belgilaydi.



N.A.Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: "kompetentlik- bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi" [6, 357-b].

A.X.Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta'rif bergan: "kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir" [4, 8-12-b].

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik bo'lajak mutaxassisning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

### XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan kompetentlik - bu bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyati yoki keng ma'noda muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan jarayonini (harakat va bilim) ko'rsatish, topish qobiliyatidir.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali taqdim etilgan asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qo'yilgan talablar ko'rinishida shakllantirilgan. Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak pedagogning profilli (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchi kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi.

Yuqoridagi kasbiy kompetentlikka berilgan barcha ta'riflar o'zida kreativlikni ifodalaydi. Pedagog kreativligi o'z predmeti va unga mos fan sohasida bilimlarga, ta'lim va tarbiya metodikasini egallagan bo'lishga, psixologiyada sinchiklab tekshirib ko'rish ko'nikmasiga asoslanadi.

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentlikka ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Pedagogning o'zini-o'zi kreativ faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda kreativlik kompetentligini rivojlantirish uchun ularga erkinlik va o'zlashtirish imkoni bo'lishi kerak. Bu ularni o'z fikrlarini ifodalash, muammolar yechish va yaratish jarayonlarini tashkil etishga o'rgatish bilan amalga oshirilishi mumkin.

- Interaktiv texnologiyalardan, onlayn platformalardan va o'quv dasturlardan foydalanish o'quvchilarning faoliyatini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu usul talabalarga malakali savollar berish, muammolar yechish va yaratish jarayonlarini o'rganish imkonini beradi.

- Guruh ishlari va hamkorlik talabalarni bir-birlari bilan hamkorlik qilishga va fikr almashishga rag'batlantiradi. Bu usul talabalarni muammolar yechish, fikr bildirish va yaratuvchanlikni rag'batlantirishga imkon beradi.

- O'qituvchilar boshqaruv va tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talabalarga muhim masalalarni tahlil qilish va o'z fikrlarini ifodalashni o'rgatishlari kerak. Bu talabalarning tafakkur va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Ijodiy faoliyat va yaratish jarayonlariga tayanish talabalarning kreativlik va innovatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar talabalarni ijodiy faoliyatlar va yaratish jarayonlariga yo'naltirishlari lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бранский, В.П., Социальная синергетика и акмеология / В.П. Бранский, С.Д.Пожарский.-СПб.: Политехника, 2002.
2. Козлова, Н. В. Личностно-профессиональное становление: психолого-акмеологический подход / Н.В. Козлова. - Томск: Изд-во ТПУ, 2007. - 201 с.
3. Lubart T. Creativity across cultures // Handbook of creativity. N.Y. : Cambridge University Press, 2001. P. 339-350.
4. Махмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндошувини жорий қилишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим. - 2012. - № 4. 8-12 бетлар.
5. Ма'муров В.В. Акмеологик yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni pedagogik faoliyatga tayyorlash. Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya", 2017, 10-11-betlar.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fanl.dokt. ... diss. - T.: 2007. - 357 b.
7. Plucker J., Beghetto R. Why creativity is domain general, why it looks domain specific, and why the distinction does not matter // Who is creative? Washington, D.C. : American Psychological Association, 2010. P. 153-167.
8. Yo'ldosheva D.A. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari // FarDU. ILMIY XABARLAR. Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 1-2023. - B. 83-87.